



NEW MEASURES AND SUPPORT MECHANISMS FOR DEVELOPING EXPORTS IN UZBEKISTAN

Bobokulov Abbosjon Alisher o'g'li

2nd-year Master's student at Bukhara University of Innovations

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14963919>

ARTICLE INFO

Received: 24th February 2025

Accepted: 27th February 2025

Online: 28th February 2025

KEYWORDS

Export activities, foreign trade policy, financial support, insurance premium compensation, export potential, competitive products, pre-export financing, export promotion.

ABSTRACT

This article is dedicated to analyzing the new measures and support mechanisms aimed at developing export activities in Uzbekistan. Since 2017, based on the government decisions and decrees focused on promoting exports, a series of innovative measures have been implemented to enhance the country's export potential. These include pre-export financing, compensation for insurance services, and ensuring financial and organizational support necessary for accessing foreign markets. The article examines the financial assistance provided to exporters, customs and tax incentives, new export mechanisms, and government policies aimed at expanding the geography of exports through the introduction of international standards and certifications. The research findings demonstrate the positive impact of the innovations implemented and the existing opportunities for further developing export activities in Uzbekistan.

O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RIVOJLANTIRISHDA YO'LGA QO'YILGAN YANGI CHORA-TADBIRLAR VA QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI

Bobokulov Abbosjon Alisher o'g'li

Buxoro Innovatsiyalar Universiteti 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14963919>

ARTICLE INFO

Received: 24th February 2025

Accepted: 27th February 2025

Online: 28th February 2025

KEYWORDS

Eksport faoliyati, tashqi savdo siyosati, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, sug'urta mukofoti kompensatsiyasi, eksport salohiyati, raqobatbardosh mahsulotlar, eksportoldi

ABSTRACT

Ushbu maqola O'zbekistonda eksport faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan yangi chora-tadbirlar va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. O'zbekiston Respublikasining 2017-yildan boshlab eksportni rag'batlantirishga qaratilgan hukumat qarorlari va farmonlari asosida eksport salohiyatini oshirish uchun bir qator innovatsion chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu o'z ichiga eksportoldi moliyalashtirish, sug'urta xizmatlarini kompensatsiyalash, tashqi bozorlarga chiqish uchun zarur bo'lgan moliyaviy va tashkiliy qo'llab-quvvatlashni ta'minlashni oladi. Maqolada eksportchilarga



moliyalashtirish, eksportni rag'batlantirish.

taqdim etilgan moliyaviy yordam, bojxona va soliq imtiyozlari, yangi eksport mexanizmlari, shuningdek, xalqaro standartlar va sertifikatlarni joriy etish orqali eksport geografiasini kengaytirishga qaratilgan hukumat siyosati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari, O'zbekistonda eksport faoliyatini yanada rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlar va amalga oshirilgan yangiliklarning ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va global bozorlarda o'z o'rnini topishi uchun eksport faoliyatining samarali tashkil etilishi juda muhimdir. Eksport salohiyatini oshirish, mahalliy mahsulotlarning xalqaro bozorlarda raqobatdoshligini ta'minlash va eksportni rag'batlantirishning yangi mexanizmlari mamlakatning iqtisodiy siyosatida asosiy o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilgi farmonlari va qarorlariga binoan eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun bir qator yangi chora-tadbirlar joriy etildi. Ushbu chora-tadbirlarda eksportchilarni moliyaviy, tashkiliy va huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamlı mexanizmlar taqdim etildi. Mahalliy mahsulotlarning eksport salohiyatini oshirish, eksport mexanizmlarini soddalashtirish, sug'urta va moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimlarining joriy etilishi mamlakatning tashqi savdo siyosatini yangilash va eksport hajmlarini ko'paytirishga xizmat qilmoqda. Bunda, davlat tomonidan eksportchilarni qo'llab-quvvatlash uchun kompensatsiya, kreditlash va eksportoldi moliyalashtirish kabi vositalar faol joriy etilmoqda. Ushbu maqolada O'zbekistonda eksport faoliyatini rivojlantirishga doir joriy qilingan chora-tadbirlar va yangi qo'llab-quvvatlash mexanizmlari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilning 15 dekabrda "Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlar raqobatdoshligini ta'minlash va eksportini rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra mahsulotlardan tashqari barcha eksport qilinayotgan mahsulotlarni bojdan ozod qildi va eksportni litsenziyalashtirishni bekor qilinishi ko'rsatib o'tilgan. Bunga ko'ra mamlakatimiz eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida 2017 yildan boshlab O'zbekiston banklari tomonidan eksport oldi moliyalashtirish mexanizmlarini tatbiq etish ishlari boshlandi. Bu esa eksportga mo'ljallangan rivojlanish tizimini faollashtirishda muhim qadam bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 25 avgustdagi "Eksport qiluvchilar garov sifatida sug'urta xizmatlaridan foydalanganda, sug'urta mukofoti uchun to'lov xarajatlarini kompensasiya qilish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash" (VMQ-512-son Qarori) eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash va yanada samarali tashkil etish maqsadida qabul qilingan huquqiy hujjatdir. Bu qarorning asosiy maqsadlaridan biri eksportchilarni sug'urtalashni rag'batlantirish ya'ni eksport qiluvchi korxonalariga garov sifatida sug'urta xizmatlaridan foydalanishni qo'llab-quvvatlash va bu xizmatlarning xarajatlarini qisman kompensatsiya qilish imkoniyatini yaratadi. Bu, eksport qiluvchilarning sug'urta mukofotlarini qoplash uchun davlat tomonidan taqdim etiladigan yordamni o'z ichiga oladi. Qarorga ko'ra, eksport qiluvchilar garov sifatida sug'urta xizmatlaridan foydalanganda, sug'urta mukofoti uchun to'lovlarning ba'zi qismlari



kompensatsiya qilinadi. Kompensatsiya sug'urta mukofotining 1 foizidan oshmagan qismini tashkil qiladi. Agar sug'urta mukofoti miqdori 1 foizdan oshsa, ortiqcha mablag'ni eksport qiluvchi o'zi to'laydi. Kompensatsiya qilish tartibi quyidagicha bo'lib bunda kompensatsiya faqat eksport shartnomasi yoki eksportoldi moliyalashtirish shartnomalari asosida amalga oshirilgan sug'urta xizmatlari uchun beriladi. Qaror, sug'urtalovchilarga berilgan yoki to'lanishi kerak bo'lgan mukofotning 100 foizigacha kompensatsiya qilish imkonini yaratadi, ammo bu miqdor yuqorida aytib o'tilgan 1 foiz chegarasidan oshmasligi kerak. Ushbu qaror eksport qiluvchilarni sug'urta xizmatlari orqali qo'llab-quvvatlashning moliyaviy yukini kamaytiradi va shu orqali ularning tashqi bozorlar bilan o'zaro aloqalarini mustahkamlashga yordam beradi. Kompensatsiya mexanizmi eksport qiluvchilarni risklarni minimallashtirishga va o'z bizneslarini kengaytirishga undaydi. Vazirlar Mahkamasining ushbu qarori O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirishga, eksport qiluvchilarga bo'lgan moliyaviy yordamni kengaytirishga, shu bilan birga, ular uchun xavf-xatarlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Sug'urta xizmatlarining xarajatlarini qoplash orqali, davlat eksportchilarni qo'llab-quvvatlaydi va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega, chunki eksportning rivojlanishi mamlakatning valyuta kirimlarini oshirishga va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 oktyabrdagi "Eksport va investitsiyalarni rivojlantirish masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida" gi 601-son Qarorida eksport va investitsiyalarni rivojlantirish masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasining asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari va mas'uliyati, faoliyatining tashkiliy asoslari belgilab berildi. Nizomga ko'ra, eksport salohiyatini rivojlantirish, investitsiya loyihalarining samarali amalga oshirilishini ta'minlash, hududlarda sanoat klasterlarini tashkil etish va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, oliy darajadagi tashriflar davomida imzolangan hujjatlarni amalga oshirish yuzasidan tasdiqlangan «yo'l xaritalari» ning ijrosini nazorat qilish kabilar Hukumat komissiyasining asosiy vazifalari etib belgalandi. Bunda eksport salohiyatini rivojlantirish masalalari sohasida eksport prognoz parametrlarining bajarilishini doimiy ravishda monitoring qilish, shuningdek kelgusi yillar uchun eksport prognozini shakllantirish ishlarini tashkil etish, hududlar va tarmoq eksport salohiyatining o'sishi va safarbar etilishiga to'sqinlik qiladigan joriy va tizimli muammolarni aniqlash, nobarqaror tashqi kon'yunktura, shuningdek yangi turdagi xalqaro tahdid va xatarlar (koronavirus pandemiyasi kabi) sharoitida mamlakatning eksport qilish salohiyatini rivojlantirish, eksport faoliyatini amalga oshirishda aniqlangan muammolarni o'rganib, zarur hollarda joyida bartaraf etish choralarini ko'rish, eksport salohiyatini yanada kengaytirish bo'yicha amaliy, shu jumladan qonunchilikka tegishli o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqilishi Hukumat komissiyasining vazifalaridan kelib chiqib amalga oshirishi belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 maydagi "Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohaslarini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3693-sonli Qaroriga «O'zcharmsanoat» uyushmasi a'zolari-tashkilotlarga qator soliq va bojxona imtiyozlari hamda prefensiyalar berildi. Bunda foyda solig'i va mol-mulk solig'ini to'lashdan ozod etildi, belgilangan tartibda tasdiqlanadigan



ro'yxatlar bo'yicha import qilinadigan, Uyushma a'zolari-tashkilotlar tomonidan o'z ishlab chiqarishida foydalaniladigan asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar, respublikada ishlab chiqarilmaydigan xom ashyo, materiallar va furnitura uchun bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvini uchun yig'implardan tashqari) ozod etildi, o'z ishlab chiqarishi uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar, xom ashyo, materiallar va furnituralarni import qilishda bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan kundan boshlab bojxona to'lovlarini (bojxona rasmiylashtiruvini uchun yig'implardan tashqari) to'lashni 60 kunga qadar muddatga kechiktirish ruhsat berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 dekabrda "Eksportga ko'maklashish va uni rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, Eksportni qo'llab-quvvatlash milliy tizimi yaratildi. Bunda, eksport qiluvchilar mahsulotini eksport bozoriga tashish bilan bog'liq xarajatlarning 50 foizigacha qoplash uchun kompensasiya olishlari mumkinligi, sug'urta xizmatlari eksport qiluvchilar tomonidan garov sifatida foydalanilgan taqdirda sug'urta mukofotining kompensasiyalash tartibi ham joriy qilinganligi, eksport qiluvchi korxonalarining faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida ularning eksport operatsiyalari bo'yicha tashqi xarajatlarni qoplab berishga qaratilgan moliyaviy yordam turlari joriy qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 31 oktyabrda "Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mamlakatda faoliyat yuritayotgan eksportyor korxonalarini eksport majburiyatlarini bajarishda aylanma mablag'lar ta'minlash bo'yicha moddiy yordam ko'rsatish tizimi joriy qilishga qaratilgan. Bu qarorda eksportyor korxonalariga moliyaviy yordam berish orqali eksportchi korxonalarini xaridorlar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida to'liq bajarish, bundan tashqari sifatli va raqobatbardosh tovarlarni ishlab chiqarishga ko'maklashish, yangi turdagi tovarlarni ishlab chiqish orqali tashqi bozorga chiqish va eksport geografiasini kengaytirishga qaratilganidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 21 oktyabrda "Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6091-son Farmonida respublika ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi bosqichida eksport hajmlarini ko'paytirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, tayyor mahsulot yetkazib beruvchilarni qo'shimcha moliyaviy va tashkiliy rag'batlantirish, shuningdek, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarni bajarishga qaratilgan edi.

2021 yil 13 iyulda "Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida"gi PQ-5184-son qaroriga asosan eksport bilan bog'liq savdo operatsiyalari va eksportoldi moliyalashtirish kreditlari uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan Eksportni rag'batlantirish agentligi huzuridagi Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga 200 million AQSh dollari ajratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 sentyabrda "Tadbirkorlik sub'ektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi Bunda "Yangi O'zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti" dasturini amalga oshirish va 200 ta eksportyor korxonani tanlab olib, ularni davlat tomonlama qo'llab-



quvvatlash demakdir. Bu Farmonda keltirilgan “Yangi O‘zbekiston-raqobatbardosh mahsulotlar yurti” dasturi uch bosqichda amalga oshirilishi rejalashtirildi va natijada birinchi bosqichda 2022 yil yakuniga ko‘ra 50 ta eng samarali hisoblangan yetakchi eksportyor korxonalar tanlab olindi va bu ko‘rsatkich 2023 yilning dastlabki oylarida 100 taga yetkazildi. Farmonda keltirilgan vazifalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi, PF-60-sonli Farmonini ijrosini ta‘minlash borasida ya‘ni 28 qadamda keltirilgan Mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xorijiy davlatlarga chiqarishda ko‘maklashish tizimini takomillashtirish hisobiga eksportchi korxonalar sonini hozirgi 6500 tadan 15000 taga, tovarlarning eksport geografiasini 115 tadan 150 taga yetkazish va «Yangi O‘zbekiston - raqobatbardosh mahsulotlar yurti» g‘oyasi asosida 200 ta eksportchini ochiq tanlov asosida saralab, ularni yetakchi eksportyorlarga aylantirish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash vazifasini ijrosini ta‘minlashga qaratilgan. Aynan, 2023 yil 1 iyuldan boshlab, 200 ta eksportchini ochiq tanlov asosida saralab olinishini davomiy bosqichlarini amalga oshirib ularning sonini 200 taga yetkazilishi rejalashtirilgan. Bugungi kunga qadar dasturga qaratilgan 100ta eksportchi korxonalarining 36 tasiga 71 milliard so‘mlik QQS tezlashtirilgan tartibda 7 kun ichida qaytarib berildi.

Bundan tashqari 20 tasiga eksport oldi moliyalashtirish maqsadida 17,3 million dollarlik moliyaviy resurslar ajratildi. Shu bilan birga mazkur eksportchi korxonalarda xalqaro sertifikat va standartlarni joriy etish uchun 30 ming dollargacha bo‘lgan qiymatda Eksportni rag‘batlantirish agentligidan moliyaviy yordam olish imkoniyati mavjud. Yil boshidan bugungi kunga qadar 100 ta eksportchi korxonadan 120 million dollarlik eksport amalga oshirilgan .

XULOSA

O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va xalqaro bozorlarda o‘z o‘rnini topishi uchun eksport faoliyatining samarali tashkil etilishi juda muhimdir. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish va mahalliy mahsulotlarning global bozorlarda raqobatdoshligini ta‘minlashga qaratilgan turli xil chora-tadbirlar va yangi qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ishlab chiqilmoqda. Prezident farmonlari va qarorlariga asoslangan eksportni rag‘batlantirish tizimi, shu jumladan sug‘urta xizmatlari, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, bojxona imtiyozlari, eksportoldi moliyalashtirish va kompensatsiya mexanizmlari eksportchilarni qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu esa mamlakatning tashqi savdo faoliyatini faollashtirish va eksport hajmlarini oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yilgi qarorlari, shuningdek, Hukumat komissiyasining tashkil etilishi eksport va investitsiyalarni rivojlantirishdagi yirik chora-tadbirlarning amalga oshirilishiga yo‘l ochmoqda. Eksport salohiyatini kengaytirish va hududiy, tarmoq bo‘yicha muammolarni aniqlash hamda ularni hal etishga qaratilgan amaliy ishlar orqali O‘zbekiston xalqaro bozorlarda o‘z pozitsiyasini yanada mustahkamlashga qaratilgan. Yangi "Yangi O‘zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti" dasturi eksportyor korxonalarini qo‘llab-quvvatlash va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, eksport faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, soliq va bojxona imtiyozlarini taqdim etish, hamda xalqaro sertifikatlar va standartlarni joriy etish orqali o‘zaro aloqalar va eksport geografiasini kengaytirish rejalashtirilgan. Bularning barchasi O‘zbekistonning iqtisodiy barqarorligini ta‘minlash,



xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishni kuchaytirishga yordam beradi. Umuman olganda, eksportni qo'llab-quvvatlash va investitsiya salohiyatini oshirishga qaratilgan barcha tashkiliy va moliyaviy chora-tadbirlar, O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishiga yangi imkoniyatlar yaratadi va davlatning tashqi iqtisodiy siyosatidagi yangi bosqichni boshlashga turtki bo'ladi.

References:

1. 2017 yil 15 dekabrda "Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlar raqobatdoshligini ta'minlash va eksportni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon. <https://lex.uz/docs/-3460651>
2. 2018 yil 3 maydagi "Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohasini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror. <https://lex.uz/uz/docs/-3828823>
3. 2020 yil 31 oktabrda qabul qilingan "Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon. <https://lex.uz/docs/-6658633>
4. 2022 yil 30 sentyabrda qabul qilingan "Tadbirkorlik sub'ektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon.
5. 2020 yil 25 avgustdagi "Eksport qiluvchilar garov sifatida sug'urta xizmatlaridan foydalanganda, sug'urta mukofoti uchun to'lov xarajatlarini kompensatsiya qilish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash" (VMQ-512-son Qarori). <https://lex.uz/docs/-4967523>
6. 2020 yil 6 oktyabrda "Eksport va investitsiyalarni rivojlantirish masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash" (601-son Qarori).